

“OILA VA GENDER” ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

“TASDIQLAYMAN”

“Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti direktori N. M. Egamberdiyeva

August 2024-yil

09.00.04 – “Ijtimoiy falsafa” (falsafa fanlari)

ixtisosligi bo'yicha kirish imtihon

dasturi

TOSHKENT – 2024

Ushbu dastur ixtisosligi bo‘yicha tayanch doktorantlar (PhD) va doktorantlarga (DSc) mo‘ljallangan bo‘lib, unda ijtimoiy ong va uning shakllari, ma’naviy, siyosiy va huquqiy hayot, ijtimoiy sheriklik, shaxs erkinligi va mas’uliyati masalalariga e’tibor qaratilgan.

Tuzuvchilar:

f.f.d., prof. M. Nurmatova

f.d. (PhD) S.Alimov

Taqrizchi

f.d. (DSc), dots. O‘.Tilavov

Mazkur dastur “Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti Ilmiy kengashining 2024-yil 27-avgustdagи 5-sonli majlisida tasdiqlangan.

KIRISH

Ushbu dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli, 2023-yil 11-sentabrdagi ““O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-sonli, 2022-yil 7-martdagi “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-87-sonli, 2023-yil 21-dekabrdagi “Oila va xotin-qizlar qo‘mitasining faoliyatini takomillashtirishga oid qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-208-sonli, “Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo‘g‘in sifatida ishslashini ta’minalashga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-209-sonli Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi huzurida “Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot institutini tashkil etish to‘g‘risida”gi 367-sonli, 2023-yil 21-dekabrdagi “Oilalarni mustahkamlash va xotin-qizlarning faolligini oshirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-401-sonli, “O‘zbekiston mahallalari uyushmasi faoliyatini yo‘lga qo‘yish va mahallalarda boshqaruv tizimini takomillashtirishga oid qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-402-sonli Qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 31-martdagi “Xotin-qizlar muammolarini o‘rganish va hal etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 145-sonli, 2024-yil 12-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi faoliyatini tartibga solish sohasidagi ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 500-sonli qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan.

09.00.04 – “Ijtimoiy falsafa” (falsafa fanlari) ixtisosligi bo‘yicha kirish imtihoni ilmiy-pedagogik kadrlarni davlat attestatsiyasidan o‘tkazishning tarkibiy qismidir, Ijtimoiy hodisalarini yaxlit, bir butun hodisa sifatida tadqiq etish fanning maqsadini tashkil etadi. Mazkur maqsadni amalga oshirish uchun mahalla va oilalarda ijtimoiy hodisalarning rivojlanishini, jamiyat hayoti va taraqqiyoti, inson kamolotida mahalla va

oilaning o‘rni va ahamiyatini tahlil qilish kabi masalalarni o‘rganish zarur. 09.00.04 – “Ijtimoiy falsafa” (falsafa fanlari) ixtisosligi bo‘yicha tuzilgan kirish imtihoni dasturi umumiy falsafa fanining bir tarmog‘i bo‘lib, yuqori malakali mutaxassis bo‘lishi uchun eng muhim falsafiy-axloqiy hamda falsafiy-pedagogik bilimlarni o‘z ichiga oladi.

Imtihon topshiruvchi tadqiqotchi yuqori darajada nazariy va amaliy tayyorgarlikka ega bo‘lishi, ijtimoiy falsafaning boshqa ijtimoiy-siyosiy fanlar bilan bog‘liq ilmiy-metodologik asoslaridan xabardor bo‘lishi, shu bilan birga o‘z bilimidan ilmiy va amaliy vazifalarni to‘g‘ri hal etishda foydalana bilishi lozim.

FANNI O‘ZLASHTIRISHGA QO‘YILGAN TALABLAR:

Tadqiqotchilar:

- ijtimoiy falsafa fani mazmuni va mohiyati, shakllanish bosqichlari, hozirgi holati, jamiyat hayotidagi o‘rni, jamiyat va inson rivojiga oid ijtimoiy falsafa faning obyekti va predmeti, globallashuv sharoitida ijtimoiy falsafaning ahamiyati, ma’naviy yuksalish va o‘zlikni anglash jarayonlari haqida bilimga ega bo‘lishi;
- oilaning ijtimoiy-falsafiy tushunchalarini va kategoriyalari tizimi, qonunlarini tahlil qila olishi;
- fan maqomini belgilovchi tamoyillar va belgilar haqida nazariy bilimga ega bo‘lishi;
- ijtimoiy falsafa paradigmalari va ularning transformatsiyasi haqida ma’lumotga ega bo‘lishi;
- ijtimoiy falsafa fanining ijtimoiy-gumanitar fanlar tizimida tutgan o‘rni haqida tasavvurga ega bo‘lishi;
- ijtimoiy falsafa va tarix falsafasi, ijtimoiy falsafa va sotsiologiya fanlarining o‘zaro bog‘liqligini tahlil qila olishi;
- jamiyat va oilaning xususiyatlari, rivojlanish omillari, qonuniyatlar, istiqboli haqida nazariy bilimlarga ega bo‘lishi;
- oila va jamiyatning vujudga kelishi, taraqqiyot bosqichlari haqida muayyan bilimga ega bo‘lishi;
- oila va jamiyatning ijtimoiy tarkibi, moddiy va ma’naviy hayoti, ommaviy va

siyosiy tashkilotlarning rivojlanib, o‘zgarib borishi masalalarini tahlil qilishi;

- O‘zbekistonning mustaqilligi sharoitida jamiyat, oila va inson falsafasini o‘rganish zaruriyati va ahamiyatini bilishi;
- ijtimoiy falsafaning nazariy-metodologik, pedagogik-didaktik, prognozlashtirish, modellashtirish, tashkillashtirish va boshqarish kabi xususiyatlaridan foydalana olish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi lozim.

DASTURNING MAZMUNI

IJTIMOY ONG VA UNING SHAKLLARI

Ijtimoiy ong – jamiyat hayotida muayyan ijtimoiy guruhlarga xos qarashlar, g‘oyalar tizimi. Ijtimoiy ong tizimining ijtimoiy borliq bilan uzviy bog‘liqligi. Ijtimoiy ong shakllarining vujudga kelishi va rivojlanish qonuniyatları. Ijtimoiy ongning nisbiy mustaqilligi, uning jamiyat hayoti va taraqqiyotiga kuchli ta’sir ko‘rsatishi. Ijtimoiy ong va uning paradigmalari. Falsafa ijtimoiy ongning alohida shakli. Diniy ongning zamonaviy tahlili. Jamiyat taraqqiyotida axloqiy ongning rolini oshib borishi. Individual ong va ijtimoiy ong munosabatlari. Ekologik ong va uning ijtimoiy ong tizimida o‘rni va ahamiyati.

JAMIYATNING MOHIYATI, SHAKLLARI VA RIVOJLANISH

BOSQICHLARI

Jamiyat – tabiatning ijtimoiy kategoriyasidir. Jamiyat tushunchasining mazmun-mohiyati. Jamiyatning tarixiy rivojlanish shakllari, ularning mohiyati va xususiyatlari. Jamiyatning evolyutsion va revolyutsion taraqqiyoti modellari. Urug‘, qabila, elat, millatning asosiy belgilari. Jamiyatning yaxlit ijtimoiy birligini ta’minalash omillari va ularning o‘zgarish dinamikasi. Kishilik jamiyat – tabiiy taraqqiyotning muayyan bosqichida vujudga kelgan ijtimoiy munosabatlar yig‘indisi. Jamiyat – odamlar va ular uyushmalari faoliyatining mahsuli. Ideal jamiyat. Axborotlashgan jamiyat.

Inson – ijtimoiy munosabatlar obyekti va subyekti. Oila va uning asosiy shakllari. Oilaning rivojlanish tarixi. Oilaning klassifikatsiyasi. Oila jamiyatning kichik bo‘g‘ini, shu bilan birga mahallaning o‘zagidir. Zamonaviy oilaning taraqqiyot tendensiyalari. Jamiyatning iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy hayoti. Iqtisodiyot va ma’naviyatning uzviy

bog‘liqligi. Ijtimoiy taraqqiyot va inson omili ahamiyatining oshib borish qonuniyati. Jamiyat rivojida barqarorlik va berqarorlik, tartib va tartibsizlik kategoriyalarining o‘rni. Mustaqillik sharoitida O‘zbekistonda jamiyat taraqqiyotining xususiyatlari.

JAMIYAT RIVOJLANISHIDA TABIIY VA IJTIMOIY OMILLAR BIRLIGI

Tabiat va jamiyat, ularning o‘zaro bog‘liqligi va bir-biriga ta’siri. Tabiiy muhit – jamiyat hayoti va rivojlanishining doimiy va zaruriy shartidir. Jamiyat taraqqiyotining tabiiy omillari: geografik muhit, demografik omil. Biosfera va noosfera tushunchalarining mazmun-mohiyati. Oila ijtimoiy institut sifatida: turlari va vazifalari. Oilaning ijtimoiy mohiyati va vazifalari. Aholi - tarixiy jarayonlarning sohibidir. Jamiyat taraqqiyotining ijtimoiy omillari. Tabiat va jamiyat munosabatlari. Insonning tabiatga ta’siri ishlab chiqaruvchi kuchlari rivojlanish darajasiga, ijtimoiy tuzum xarakteriga, jamiyat va kishilar kamolot darajasiga bog‘liqligi. Moddiy ishlab chiqarish tushunchasi. Ishlab chiqarish – jamiyat bilan tabiatning bir-biriga ta’sir etish jarayoni. Ishlab chiqarish kuchlarining tabiatga ta’siri va uning oqibatlari. Ishlab chiqarish munosabatlari. Ishlab chiqarish usullari. Inson – jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchi. Ilmiy-texnika inqilobi va uning mehnat unumdarligi o‘sishiga ta’siri. Ishlab chiqarish kuchlari bilan ishlab chiqarish munosabatlarining o‘zaro bog‘liqligi. Fanning ishlab chiqarish kuchiga aylanish jarayoni, ishlab chiqarish munosabatlari tizimi, ishlab chiqarishning intellektuallashuvi. Mustaqil O‘zbekistonda jamiyat rivojlanishida tabiiy va ijtimoiy omillar roliring oshib borishi. Moddiy va ma’naviy ishlab chiqarish ijtimoiy taraqqiyot asosi. Mustaqillik sharoitida ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish munosabatlari rivojlantirish omillari. Yangi O‘zbekiston g‘oyasi, ijtimoiy rivojlanish yo‘nalishlari. Obod va xavfsiz mahalla.

JAMIYATNING MA’NAVIY HAYOTI

“Ma’naviy hayot” tushunchasi. Ma’naviy salohiyatning jamiyat moddiy-iqtisodiy hayotidagi o‘rni. Jamiyat ma’naviy hayotida tarixiy merosga vorislik va yangilanish muammolari. Oilaning ijtimoiy institut sifatida funksiyalari, belgilari va xususiyatlari.

Ta'lim-tarbiya tizimini isloh qilish – jamiyat ma'naviy hayotining takomillashtirish omili. Til – ma'naviy takomil asosi. Ma'naviy integratsiyaning ijtimoiy-falsafiy masalalari. Milliy g'oya va mafkura. Milliy mentalitet. Ma'naviy tiklanish va taraqqiyot. "Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari" g'oyasining ijtimoiy mohiyati. Uchinchi Renessans fenomeni. Oilalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish zarurati. Qadriyatlar va ularning ijtimoiy ahamiyati. Oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash masalalari. Ma'naviy tahdidlar va ularning yo'nalishlari. "Ommaviy madaniyat" tahdidi, uni bartaraf etish muammolari. Gender va gender tenglik tushunchalarining mazmun-mohiyati, zo'ravonlik, "Ayollar daftari", "Ayollar maslahati kengashi" va "Ayollar jamoatchilik kengashlari". "Oqila ayollar" harakati

JAMIYATNING MODDIY-IQTISODIY HAYOTI

Moddiy ne'matlar ishlab chiqarish-jamiyat rivojining zaruriy sharti. Moddiy ehtiyojlarni qondirish va manfaatdorlik jamiyat iqtisodiy hayotining bosh maqsadi. Fantexnika inqiloblari va uning jamiyat taraqqiyotiga ta'siri. O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirdorlikni jadal rivojlantirish, rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirilgan islohotlar. Oilaning iqtisodiy vazifasi. Jamiyat iqtisodiy va sotsial taraqqiyotida mehnatning roli.

Bozor munosabatlariga o'tish sharoitida mulkchilikning muqobil shakllarini vujudga keltirish zarurligi. Mulkiy munosabatlar va mehnat taqsimoti. Mulk va mehnatga munosabat. Iqtisodiyot va ma'naviyatning uzviy bog'liqligi. Raqobat – bozor munosabatlari sharoitida iqtisodiy hayotning zarur sharti. O'zbekistonda inqirozga qarshi choralar dasturi doirasida amalga oshirilgan islohotlar. Zamonaviy jamiyatda oila rivojlanishining tendensiyalari va muammolari. Ayollar tadbirdorligi va ijtimoiy taraqqiyotning o'zaro bog'liqligi.

JAMIYATNING SIYOSIY VA HUQUQIY HAYOTI

Jamiyatning siyosiy hayotida davlatning o'rni va roli. Oila: tushunchalar, funksiyalar, oilalarning turlari. Demokratik jamiyatda nodavlat tashkilotlarning tutgan o'rni. Demokratik jamiyatda oilaning ijtimoiy vazifalari. Siyosiy partiya, jamoat

tashkilotlari va ijtimoiy harakatlar demokratik jamiyat siyosiy hayotining tarkibiy qismi. Demokratik qadriyatlarni qaror toptirish siyosiy islohotlarning bosh maqsadi. Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish – islohotlar jarayonining strategik maqsadi. Konstitutsiya – demokratik jamiyatning siyosiy va huquqiy hayotini takomillashtirishning muhim vositasi. Siyosat va huquqiy madaniyatni takomillashtirishda jamoatchilik fikri hamda ta’lim-tarbiya institutlarining o’rni. Mahalla – milliy boshqaruv instituti sifatida.

JAMIYATNING IJTIMOY HAYOTI

“Ijtimoiy hayot” tushunchasi. Oilaning ijtimoiy istiqbollari. Jamiyat hayotining gorizontal kesimi: sinflar, sotsial guruhlar, ijtimoiy qatlamlar. Milliy hamjihatlik, millatlararo hamkorlik – ijtimoiy barqarorlik omili. Din va konfessiyalarning ijtimoiy-falsafiy mohiyati. Oila va ijtimoiy hamkorlik. Mobillik – ochiq demokratik jamiyatning sotsial hayotiga xos hususiyat va uning yo‘nalishlari. Jamiyat hayotining vertikal kesimi: sotsial stratifikatsiya, mulkka egalik va mulksizlik. Elita – demokratik jamiyat sotsial tarkibining muhim elementi. Mulkdorlar sinfining shakllanishi va jamiyat taraqqiyotidagi barqarorlikni ta’minalash muammolari. Oilaning ijtimoiy institut sifatida umumiy ta’rifi. Kuchli ijtimoiy himoya – o‘tish davrining asosiy tamoyillaridan biri. Oilani qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha siyosat, maqsadlar, g‘oyalar, yo‘nalishlar. 2023-yil – Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili.

DEMOKRATIK DAVLAT VA FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARI

“Fuqarolik jamiyati” tushunchasi. Fuqarolik jamiyati barpo etish jahon ijtimoiy hayotining bosh yo‘nalishi. Fuqarolik jamiyatida ijtimoiy o‘zgarishlar va oila. Fuqarolik jamiyatida davlatning o‘rni va roli. Fuqarolik va oila huquqi. O‘zbekistonda huquqiy davlat, demokratik jamiyat qurilishining asosiy vazifalari. Fuqarolik jamiyatini barpo etishda siyosiy va huquqiy madaniyatni takomillashtirish zarurligi. O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati barpo etishning o‘ziga xos xususiyatlari: yutuqlar, imkoniyatlar va muammolar. Kuchli davlatdan kuchli jamiyatga o‘tish tamoyili. Nodavlat notijorat tashkilotlar zimmasidagi vazifalar, davlat buyurtmalari. Oila – fuqarolik jamiyati shakllanishining muhim omili sifatida.

Ijtimoiy sheriklik tushunchasi. Ijtimoiy siyosat va oila. Ijtimoiy sheriklikning sohalari. Ijtimoiy sheriklik turlari. Ijtimoiy sheriklik tamoyillari. Ijtimoiy sheriklik qonuniy asoslari, tomonlarning kafolatlari. Fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasidagi ijtimoiy sheriklikni yo‘lga qo‘yish va rivojlantirishda xalqaro va xorijiy tajribalar. Ijtimoiy sherikchilik ijtimoiy hayotning tarkibiy qismi, uning tarixiy ildizlari: O‘zbekistonda ijtimoiy sherikchilikning paydo bo‘lishi va rivojlanishi. Ijtimoiy sherikchilikning rivojida milliy qadriyatlarning roli.

JAMOATCHILIK SUBYEKTLARI TUSHUNCHALARI

Jamoatchilik nazorati instituti jamiyatning davlat bilan o‘zaro samarali aloqasini ta’minlash. Kam ta’minlangan oilalar uchun ijtimoiy reabilitatsiya. Davlat hokimiyati va boshqaruv organlari tomonidan qonun hujjatlarining ijro etilishi ustidan jamiyat, fuqarolik institutlari nazoratini amalga oshirishning tizimli va samarali huquqiy mexanizmi. Nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, siyosiy partiyalar hamda kasaba uyushmalari jamoatchilik subyektlari sifatidagi faoliyati. Ommaviy axborot vositalari – davlat organlari va jamoatchilik o‘rtasidagi mustahkam aloqa o‘rnatuvchi, ma’lumotlar ochiqligini ta’minlovchi institut.

IJTIMOIY FALSAFADA INSON MUAMMOSI

Sharq va G‘arb ijtimoiy falsafasida insonning mohiyati to‘g‘risidagi muqobil ta’limotlar. Inson – biosotsial mavjudot. Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya. Inson mohiyatining ko‘p o‘lchamliligi. Ijtimoiy antropologiyaning ijtimoiy-falsafiy masalalari. Inson borlig‘i. Insonning kelib chiqishi va mohiyati to‘g‘risidagi diniy, ilmiy va falsafiy qarashlar tarixi. Insonning kelib chiqishi va inson borlig‘i haqidagi zamonaviy ta’limotlar. Shaxs – inson sifati va fazilatlari. “Individ”, “shaxs” va “individuallik” tushunchalari, ularning uzviy bog‘liqligi va o‘ziga xosligi. Shaxsning noyobligi va takrorlanmasligi. Jamiyat taraqqiyotida shaxsning roli muammosi. Oila va nikoh. Shaxs shakllanishida oila, mahalla, mehnat jamoalari va ta’lim-tarbiya muassasalarining hamkorligi. Shaxs dunyoqarashining shakllanishi va rivojlanishida jamoat tashkilotlari va o‘zini o‘zi boshqarish tizimining funksional mohiyati.

Shaxs erkinligi va mas’uliyati, huquq va burchlari. Ijtimoiy falsafada erkinlik va

zaruriyat masalasi. Shaxs erkinligi – tarixiy zaruriyatni anglash, ma’naviy kamolotga erishish imkoniyati. Shaxs tiplari. “Shaxs sifatini” belgilovchi xususiyatlari. Shaxs erkinligi va ma’suliyatining uzviy bog‘liqligi. Shaxs o‘z-o‘zini tarbiyalovchi va o‘z-o‘zidan rivojlanuvchi sistema. Shaxs faolligi mezonlari va yo‘nalishlari. Shaxs erkinligi, tashabbuskorligi va mustaqilligini kuchaytirish fuqarolik jamiyati shakllanishining muhim omili.

HOZIRGI ZAMON UMUMBASHARIY MUAMMOLARINING IJTIMOIY-FALSAFIY MOHIYATI

Hozirgi zamon umumbashariy muammolarining mohiyati va xususiyatlari. Muammolarni turkumlashtirish yo‘nalishlari. Yer yuzida tinchlikni saqlash, yadroviy urushning oldini olish, xalqaro xavfsizlikni ta’minlash muammosi. Butun dunyoda tabiat boyliklarini asrash, ulardan oqilona foydalanish, tabiatni muhofaza qilish. Jahonda yuqumli kasalliklarning tarqalib ketishining oldini olish. Iqlim o‘zgarishlarining ijtimoiy oqibatlari. Suvdan foydalanish bo‘yicha muammolar. Rivojlanayotgan mamlakatlarga yordamni kuchaytirish. Xalqaro terrorizm, ekstremizm, korrupsiyaga qarshi kurash. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning BMTning 78-sessiyasidagi (2023-yil, 20-sentabr) nutqida belgilab berilgan vazifalar. Markaziy Osiyoda yaxshi qo‘schnichilik, barqarorlik, o‘zaro hamkorlik va rivojlanish muhitini mustahkamlash. Umumbashariy muammolarni hal qilishda O‘zbekiston Respublikasining hissasining ortib borishi. Jahon miqqosidagi ishonch inqirozi. Gender tengligiga erishish – global maqsad sifatida. Migratsiyaning ijtimoiy falsafiy oqibatlari.

YANGI O‘ZBEKISTONNING TARAQQIYOT STRATEGIYASI VA IJTIMOIY TARAQQIYOT YO‘LI

Yangi tahrirdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun. Sivilizatsiya tushunchasi va uning ijtimoiy-falsafiy mazmuni. Jahon sivilizatsiyasini shakllantirishning muhim asoslari. Sharq va G‘arb sivilizatsiyalari ilg‘or tomonlari va yutuqlarining uyg‘unlashuvi natijasi. O‘zbekiston ijtimoiy taraqqiyotining betakror va o‘ziga xosligi. O‘zbekistonda huquqiy davlat shakllanishining tarixiy asoslari. Ijtimoiy rivojlanishning tadrijiyligi, milliy

mentalitet va salohiyatigi mosligi. Harakatlar strategiyasining o‘ziga xos xususiyatlari asosiy me’zonlari milliy va umuminsoniy qadriyatlarining birligi. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasining mazmun-mohiyati. Yangi O‘zbekiston fenomeni va uning ijtimoiy zarurati. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasining asosiy g‘oyalari: barqaror iqtisodiy o‘sish orqali daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar qatoridan o‘rin olish; aholi talablariga va xalqaro standartlarga to‘liq javob beradigan ta’lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish; aholi uchun qulay ekologik sharoitlarni yaratish; xalq xizmatidagiadolatli va zamonaviy davlatni barpo etish; mamlakatning suvereniteti va xavfsizligini kafolatli ta’minlash.

O‘ZBEKISTONDA MA’NAVIY-AXLOQIY VA IJTIMOIY TAHDIDLARGA QARSHI KURASH

Ma’naviy-axloqiy, ijtimoiy tahdidlarning kelib chiqish sabablari. Tahdidlarning turlari va unga qarshi choralar haqida. Oila to’g’risidagi qonun hujjatlari hamda ularning vazifalari. O‘zbekistonda ma’naviy-axloqiy va ijtimoiy tahdidlarga qarshi kurash bo‘yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar. Ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni asrab-avaylash, jamiyat ma’naviy-axloqiy sog‘lomligining kafolati. “Ommaviy madaniyat”ning ko‘rinishlari, unga munosabat. “Ommaviy madaniyat” tahdidi va globallashuv xususiyatlari. Yoshlarni ona Vatanga muhabbat, boy tarixga, otababolarning muqaddas diniga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbi va ongida kurashning samarali usuli sifatida. Xalqaro terrorizm, ekstremizm, korrupsiyaga qarshi kurash. O‘zbekiston majburiy mehnatga qarshi Konvensiyaga Bayonnomani ratifikatsiyasi. O‘zbekistonda oilani rivojlantirishga global darajada Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror taraqqiyot maqsadlari doirasida, shuningdek, Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi doirasida qaralishi.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi. 2023-yil 30-aprel.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni. <https://lex.uz/docs/-5013007>
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/-5841063>
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/-6600413>
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagi “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-87-sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/-5899498>
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrdagi “Oila va xotin-qizlar qo‘mitasining faoliyatini takomillashtirishga oid qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-208-sonli Farmoni <https://lex.uz/uz/docs/-6704824>
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrdagi “Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo‘g‘in sifatida ishlashini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-209-sonli Farmoni <https://lex.uz/uz/docs/-6705763>
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrdagi “Oilalarni mustahkamlash va xotin-qizlarning faolligini oshirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-401-sonli Qarori <https://lex.uz/uz/docs/-6704824>
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrdagi “O‘zbekiston mahallalari uyushmasi faoliyatini yo‘lga qo‘yish va mahallalarda boshqaruvin tizimini takomillashtirishga oid qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-402-son Qarori <https://lex.uz/docs/6705734>

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi huzurida “Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot institutini tashkil etish to‘g‘risida”gi 367-sonli Qarori. <https://lex.uz/docs/-4850317>

11. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 12-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi faoliyatini tartibga solish sohasidagi ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 500-son qarori <https://www.lex.uz/uz/docs/-7061588>

12. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2016. – 56 b.

13. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil yakunlari 2017-yil istiqbollariga bag‘ishlangan majlisidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi // Xalq so‘zi gazetasi 2017-yil 16-yanvar, № 11.

14. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent. “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.

15. Mirziyoeyv Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild.–Toshkent “O‘zbekiston”, 2017. – 592 b.

16. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. – Toshkent. “O‘zbekiston”, 2018. – 507 b.

17. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild. – Toshkent. “O‘zbekiston”, 2019. – 400 b.

18. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild. – Toshkent. “O‘zbekiston”, 2020. – 400 b.

19. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022. – 416-b.

20. O‘zbekiston Prezidentining BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasida

so‘zlagan nutqi. <https://president.uz/oz/lists/view/6679>

21. Karimov I.A. To‘la asarlar to‘plami. 1-23 jildlar. – Toshkent: O‘zbekiston, 1996-2015.
22. Абдулла Авлоний. Туркий Гулистон ёхуд ахлоқ. – Тошкент. 1994.
23. Амир Темур. Тузуклар. – Тошкент, 1993.
24. Барулин С. Социальная философия. – Москва. 1997.
25. Бромлей Ю.В. Очерки теории этноса. – Москва. Наука, 1993.412с.
26. Беруний. Асарлар. 6 томлик. – Тошкент. 1973.
27. Жаҳон фалсафаси. – Тошкент. Шарқ 2004.
28. Жумабоев Й. Ўзбекистонда фалсафий ва ахлоқий фикрлар тараққиёти тарихидан. – Тошкент. 1997.
29. Ижтимоий фалсафа. Ўкув услубий қўлланма. – Тошкент. ТДПУ, 2008.
30. Кадирова З.Р., Каримов Б.Р., Шарипов А.Д., Алиева В.Р. Толерантность, глобализация и социальное развитие. – Ташкент. 2011.160 с.
31. Крапивенский А. Социальная философия. – Москва. 1998.
32. Камю А. Бунтующий человек. – Москва. 1992.
33. Левитин Л. Ўзбекистан тарихий бурилиш палласида. – Тошкент. 2001.
34. Маънавият: Асосий тушунчалар изоҳли лугати / /Масъул мухаррир Қ.Н.Назаров – Тошкент. 2009. -760 б.
35. Мадаева Ш. Миллий менталитет ва демократик тафаккур. – Тошкент, 2008.
36. Отамуродов С. Глобаллашув ва миллат. – Тошкент. 2008. - 2046.
37. Саифназаров И.С. Иқтисодий ва маънавий манфаатлар уйғунлиги ва баркамол инсон тарбияси. – Тошкент. Янги аср авлоди, 2002. -19 б.
38. Сулаймонова Ф. Шарқ ва Ғарб. – Тошкент. Шарқ, 1997.
39. Сорокин П.А. Человек, цивилизация, общество. – Москва. 1992.
40. Тўйчиев Б.Т. Социальная философия. – Ташкент: Университет, 2015.
41. Тўйчиев Б.Т., Зиявутдинова Х. Основы социальной философии. – Т., 2009.

42. Фалсафа: энциклопедик лугат. Масъул мухаррир М.Н.Абдуллаева – Т., 2010.
43. Фалсафа. Қомусий лугат. /Масъул мухаррир Назаров. Қ.Н – Тошкент. 2004.
44. Форобий Фозил одамлар шахри. – Тошкент. 1993.
45. Хоназаров К.Х. Глобаллашув ва тил фалсафаси. – Тошкент. Фалсафа ва хукуқ, институти нашриёти, 2009. 136 б.
46. Шарқ фалсафаси. – Тошкент. 2006.
47. Шамсутдинов.Р Ўзбекистонда советларнинг қулоқлаштириш сиёсати ва унинг фожеали оқибатлари. – Тошкент. Шарқ, 2001. -368 б.
48. Ўзбекистон фалсафаси тарихи. 1-жилд. – Тошкент. ЎзМУ, 2013.
49. Ўзбекистонда ижтимоий-фалсафий фикрлар тарихидан лавҳалар. – Тошкент. Фан, 1995.
50. Куръони Карим. Таржима ва изоҳлар муаллифи Алоуддин Мансур. – Тошкент. Чўлпон, 1993.

Internet ma'lumotlari:

1. www.ziyonet.uz
2. www.istedod.uz
3. www.lex.uz
4. www.moiti.uz
5. www.pedagog.uz
6. www.faylasuf.uz

Baholash mezonlari

Kirish sinovi og‘zaki ravishda o‘tkazilishi belgilangan bo‘lib, 100 ballik mezon asosida baholanadi.

Har qaysi savolga javobi quyidagicha baholanadi:

Har bir savol uchun ball	Javobga qo‘yiladigan talablar
86-100	<p>Qo‘yilgan savolga to‘liq javob bergan. Nazariy jihatlarini yoritishda xatolik va chalkashlikka yo‘l qo‘yilmagan. Mustaqil ravishda mushohada yuritib bayon etilgan. Amaliy misollar bilan asoslab bayon etilgan. Xulosani to‘g‘ri shakllantirgan. Fikrlar erkin bayon etilgan.</p>
71-85	<p>Savolning mohiyatini tushungan. Javobni yoritib bera olgan. Amaliy misollar keltirilgan. Tasavvurga ega. Qisqacha xulosa bergan. Fikrlarni sodda bayon etgan.</p>
55-70	<p>Savol mohiyatini tushungan. Javob yoritilgan, qisqa shaklda. Misollar bilan asoslanmagan. Xulosa qilingan.</p>
0-54	<p>Savolning ayrim elementlarigina yoritilgan, yoki umuman yoritilmagan. Savol bo‘yicha aniq tasavvurga ega emas.</p>